

RO'ZIMUROD MAHMUD TO'RTLILIKLARIDA
QO'LLANILGAN BADIY SAN'ATLAR

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro adabiy harakatchiligining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lmish Ro'zimurod Mahmud hayoti, ijodiyoti va uning "Gulnoma" nomli she'riy to'plamiga kiritilgan she'rlar va ruboiylarning tahlili yoritiladi. Ularda qo'llanilgan badiiy san'atlar izohlanadi.

Kalit so'zlar: gulnoma, ruboiy, vazn, radif, qofiya, badiiy san'at, nido, tashbeh, tanosub.

Asrlar davomida shakl va mazmun jihatidan beqiyos taraqqiy etgan, jahon mumtoz adabiyoti xazinasini yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitgan Sharq she'riyati o'zining boy nazariy zaxirasiga ham ega bo'lgan. Arab, fors va o'zbek she'riyatining taraqqiyot tarixi jarayonida bir qator adabiy-tasviriy qonun-qoidalar ham shakllanib, tobora rivojlangan va boyib borgan. Chunonchi, badiiy adabiyot taraqqiyotining muayyan davrida asrlar davomida yuzaga kelgan tajribalarni umumlashtirib, badiiy asarning mohiyati va qonuniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy asarlar paydo bo'la boshlagan. Shu tariqa badiiy adabiyotning, jumladan, she'riyatning muhim qonuniyatlarini tadqiq etib, umumlashtirib beruvchi adabiyot nazariyasi ham vujudga kelgan.

Adabiyotning nazariy masalalari poetikaga doir maxsus risolalardagina emas, balki turli tazkiralarda, nomalarda, dostonlarning debochalarida va boshqa adabiy-tarixiy manbalarda katta o'rin olib kelgan. Masalan, Kaykovusning «Qobusnoma» (XI asr: 35-bob: Shoirlik haqida), Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chor maqola» (XII asr) nomli asarlarida (2-bob: She'r haqidagi ilmning xususiyatlari va she'rning fazilatlarini haqida) boshqa masalalar qatorida adabiyot borasida ham alohida boblar bo'lib, u yerda badiiy ijodning umumiy masalalari, she'r va shoirlik shartlari ustida bahs boradi.

Adabiyot nazariyasiga doir maxsus yaratilgan asarlarning (gap bizgacha yetib kelganlari ustida boradi) dyoyarli barchasi, asosan, poetika masalalariga bag'ishlangan. Umuman, adabiyot nazariyasi uchta mustaqil sohaga bo'lingan. Bular quyidagilar: 1) **ilmi aruz** she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalarini haqida bahs yuritadi; 2) **ilmi qofiya** qofiya qonuniyatlari hamda turlari to'g'risida ma'lumot beradi; 3) **ilmi bade'** («bade'» arabcha yangi, ajoyib, nodir demakdir) fikrni ravon va nafis

ifodalash yo‘llari va vositalari, badiiy san’atlar (uslublar, vositalar)ning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ilmi bade’ni tashkil etgan she’riy san’atlar, o‘z navbatida, ikki guruhga ajraladi: san’atlarning birinchi guruhi bevosita she’rning mazmuni, ma’nosi bilan bog‘langan bo‘lib, ma’naviy san’atlar (sanoye’i ma’naviy) deb ataladi. Nutqni, she’rni bezash, turli stilistik figuralar, so‘z o‘yinlari hosil qilish maqsadida ishlatiladigan san’atlar esa lafziy san’atlar (sanoye’i lafziy) deb yuritiladi. Qadimda she’r yozmoqchi bo‘lgan har bir havaskordan poetikaning ana shu uchala qismini yaxshi o‘rganib chiqish talab qilingan.

Ro‘zimurod Mahmud ijodida ham she’riy san’atlarning bir necha turlari uchraydi. Shoir ko‘p o‘rinlarda talmeh san’atidan foydalangan. Bilamizki talmeh keng qo‘llangan badiiy san’atlardan biri. Bunda shoir mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali o‘z fikrini muxtasar hikoya qiladi. Shunga ko‘ra, talmehshe’rda oz so‘z bilan ko‘p ma’noni ifodalash san’ati deyiladi.

Ishqim sahosida Majnunman o‘zim,
Ishqning azobida dilxunman o‘zim.
Ming bora senga so‘ylagan bilan,
Sen haqda o‘ylovchi har kun men o‘zim.

Ushbu to‘rtlikda shoir Majnun ismini qo‘llash orqali baytda talmeh san’atini yuzaga keltirgan. Bilamizki, Majnun bu “Xamsa” turkumidagi dostonlarning asosiy qahramoni sanaladi.

Oshiq-u devona dilxun yig‘larmish,
Azobing bog‘ida har kun yig‘larmish.
Bu damni ko‘rganda har holi zabun,
Hatto Karbaloda Majnun yig‘larmish.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu to‘rtlikda Majnun nomini tilga olgan. Ammo, bu to‘rtlikda biz Karbalo nomiga ham duch kelamiz. Bilamizki, bu joy nomi (Tarixiy joy). Shu sababdan bu so‘zni ham talmehni yuzaga keltirgan deyishimiz mumkin.

Oshiq dili na tun bilar, na kun bilar,
Oshiq dilin Layli bilar, Majnun bilar
Bu dunyoda oromni, u also bilmas,
Oshiq dardin oshiq bo‘lgan dilxun bilar.

Ushbu to‘rtlikda ham Layli va Majnun obrazlarini qo‘llash orqali shoir talmeh san’atini yuzaga keltirgan.

Shoir she’riyatida keng tarzda uchaydigan she’riy san’atlardan yana biri bu nido san’atidir. Hammamizga ma’lumki, nido san’atida shoir kirish so‘zlardan foydalanadi.

Sevgi! Sensan suyanch panohim,

Ham quvonchim, dil dardim ohim.
Mehrining faqat o'zingga berdim.
Yolg'iz o'zing, yurakka shohim.

Ey dunyo! Bag'ringda ko'p sir-sinoat,
Umrimiz sinovdan doimo ibrat.
Hayot sabog'ini hech unutmasdan,
Biz uni qadriga yetsak bas, faqat.

Yuqoridagi ikki to'rtlikdan birinchisida sevgi va ikkinchisida esa ey tangrim so'zlari nido san'atini yuzaga keltirgan.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, Ro'zimurod Mahmud muxammaslar badiiy ko'lami keng va uning ijodiyotida badiiy san'atlarning o'rni ham beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro'zimurod Mahmud. Gulnoma. "Buxoro". 2016.
2. A. Husayniy "Badoye us-sanoe".
3. ziyo.uz.com.